“Yosh iste’dodlar” tasviriy va amaliy san’at ko’rgazmasi ochildi

O’zR FA O’zbekiston tarixi davlat muzeyida “Yoshlar oyligi” doirasida “Yosh iste’dodlar” tasviriy va amaliy san’at ko’rgazmasi ochildi.

Ko’rgazma Toshkent shahar hokimligi, Madaniyat bosh boshqarmasi, O’zbekiston Yoshlar ittifoqi Toshkent shahar Kengashi, Xalq ta’limi bosh boshqarmasi hamkorligida tashkillashtirildi.

Ko’rgazmada Toshkent shahridagi 30 ta bolalar musiqa va san’at maktab o’quvchilarning 150 dan ortiq tasviriy va amaliy san’at asarlari namoyish etildi.